



## REFLECTION OF FOLKLORE CHARACTERISTICS IN HALIKARNAS FISHERMAN'S STORY "LAUGHING ISLAND"

Muhayyo Baxtiyorova

Master degree student of Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Republic of Uzbekistan

**Abstract:** In the article, Halicarnassus Balikchisi (Javad Shakir Qabooghogli) is considered one of the authors who introduced a new direction in Turkish literature with the life of seamen and sailors. That's why there are many images of the sea in the writer's works. One of his works related to this sea, "Laughing Island" ("Gülen ada"), was studied about the characters' experience and image tools. In addition, the analysis of the story "Laughing Island" by Javad Shakir Qabaogochli and the interpretation of the characters in it, as well as the concepts of conflict, are explained on a scientific basis. This article describes the writer's love for the island in the story "Laughing Island" and his method of reviving the island. Another character of the play, Kojadag, was also discussed.

**Key words:** Halikarnas Balikchisi, Laughing Island, story, conflict, analysis, image, hero.

## HALIKARNAS BALIQCHISINING “KULGAN OROL” HIKOYASIDA FOLKLORGA XOS XUSUSIYATLARNING AKSI

*Baxtiyorova Muhayyo*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti*  
*Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Halikarnas Baliqchisi (Javod Shokir Qaboog‘ochli) turk adabiyotida dengiz va dengizchilar hayoti bilan yangi yo‘nalish kiritgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham yozuvchining asarlarida dengizga oid tasvirlar ko‘p uchraydi. Aynan shu dengizga oid asarlaridan biri bo‘lgan “Kulgan orol” (“Gülen ada”) hikoyasidagi qahramonlar kechinmasi va tasvir vositalari haqida o‘rganildi. Shu bilan bir qatorda Javod Shokir Qabaog‘ochli “Kulgan orol” hikoyasi tahlili va undagi obrazlar talqini, shu bilan birga konflikt tushunchalari ilmiy asosda bayon etilgan. Ushbu maqolada yozuvchining “Kulgan orol” hikoyasidagi Dovudning orolga bo‘lgan muhabbati va orolni jonlantirish uslubi haqida bayon etilgan. Asarning yana bir qahramonidan biri Kojadag‘ obrazi haqida ham fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Halikarnas Baliqchisi, Kulgan orol, hikoya, konflikt, tahlil, tasvir, qahramon.

**Аннотация:** В статье Галикарнас Баликчиси (Джавад Шакир Кабугхогли) рассматривается как один из авторов, который ввел в турецкую литературу новое направление, связанное с жизнью моряков и морячек. Поэтому в произведениях писателя много образов моря. Одно из его произведений, связанных с морем, - "Смеющийся остров" ("Гюлен ада") - было изучено с точки зрения переживаний персонажей и образных средств. Кроме того, на научной основе проведен анализ рассказа Джавада Шакира Кабаогочли "Смеющийся остров" и интерпретация персонажей в нем, а также концепции конфликта. В статье описывается любовь писателя к острову в повести "Смеющийся остров" и его метод оживления острова. Также рассмотрен другой персонаж пьесы - Коядаг.

**Ключевые слова:** Халикарнас Баликчиси, Смеющийся остров, рассказ, конфликт, анализ, образ, герой.

Kirish. Halikarnas Baliqchisi turk adabiyotida dengizga, tabiatga va dengiz manzaralariga bo‘lgan muhabbati bilan tanilgan va asarlarida buni yaqqol ifoda etilgan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Yozuvchining Bodrumga surgun qilinishi, uning hayotidagi muhim nuqtalardan biri hisoblanadi. Bodrumga kelganidan so‘ng u yerning hayot tarzi va madaniyati bilan chambarchas bog‘lanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bodrumning eski nomi “Halikarnas” deb nomlangan bo‘lib, yozuvchi o‘ziga ushbu taxallusni olishidagi asosiy unsur mana shu hisoblanadi. Adibning asarlarida makon, zamon, inson va shu kabi unsurlar dengiz va dengiz hayotiga bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. “Kulgan orol” (“Gülen ada”) asari ham bu kabi unsurlarni o‘zida mujassam etgan hikoyalardan biridir.

Asosiy qism. Shu o‘rinda “hikoya” termini haqida aytadigan bo‘lsak: Hikoya-epik turning kichik shakli. Hikoya odatda, qahramon hayotidan bitta ( ba’zan bir-biriga uzviy bog‘liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha ) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi hikoyaning hajman kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo‘lishini taqozo etadi. Har qanday voqea ham hikoya emas. Hikoya asosida yotgan voqeaning yaxlit, tugal bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun u o‘zining boshlanishi va yakuniga ega bo‘lishi ( masalan latifadagi kabi) lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi.[4, b.402]

Bodrum, adibning nafaqat hayotida balki, asarlarida ham alohida o‘ringa ega bo‘lgan joydir. Yozuvchi asarlarida Bodrum yoki uning atrof-muhiti, tabiati, yashash tarzi, dengiz va dengizchilar, baliq va baliqchilar kabi obrazlar muhim o‘rin tutadi.

Yozuvchining “Kulgan orol” (‘Gülen ada’) nomli hikoyasi ham boshqa asarlari kabi mavzu jihatidan o‘xshashdir.

Hikoyada bir telba Dovud ismli baliqchi bo‘lib, u dengizni juda sevar edi. Arshipelga bo‘lgan muhabbati o‘zgacha edi. Erta tongdan uyg‘onar, qayig‘iga chiqib, o‘zi muhabbat qo‘ygan orollarga asta-sekin eshkak tortardi. Bu orollar ichida eng sevgan oroli esa qayerdan boshlab qayergacha davom etgani ma‘lum bo‘lmagan Kulgan orol edi. Bu orolning osti dengizosti g‘orlari va u g‘orlarga kirish joyidagi o‘ymakor naqshlardan iborat edi. Kunlardan bir kuni Izmirdan kelgan mashur tadqiqotchi Kulgan orolni ko‘rish istagida telba Dovudning qayig‘ini ijaraga oldi va ular ikkalasi to‘g‘ri Kulgan orol tomon yo‘l olishdi. Ammo o‘sha vaqtda Kulgan orol, dengiz suvlarini to‘lqinlata, u yoqdan bu yoqqa toshqinlar hosil qilar edi, ularni yoniga sira yo‘latgisi kelmas edi. Shu payti tadqiqotchi jahl otiga minib, telba Dovudning o‘zini qoldirib ortga qaytishni afzal bildi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, tadqiqotchining ortiga qaytib ketganini bilgan orol sokinlikka cho‘mdi. Atrofi xuddi oldingidek, sokin va sassiz, sadosiz holga keldi. telba Dovud esa, o‘sha kecha u yerdan ketgisi kelmay qayig‘ining ustiga uzala tushib yotib olib, kulgan orolning qirg‘og‘ida o‘ziga yuqoridan turib salom berayotgan oy va yulduzlarni kuzatib tong ottirdi.

Adibning ushbu hikoyasida makon, qarhamon va mavzu doirasini inobatga oladigan bo‘lsak, boshqa asarlar bilan qisman o‘xshashlikka ega hisoblanadi. Makonga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dengiz va orol asosiy o‘rin egallamoqda.

Avvalo hikoyaning boshlang‘ich nuqtasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tabiat in‘omi sanalmish orolning insoniy xislatlarga ega ekanligini yaqqol guvoh bo‘lishimiz mumkin. Shuni ham aytib o‘tish joizki, orolning o‘z tuyg‘ularini yaqqol tashqi tomondan ko‘rsata olgani, hikoyada jonli muhitni yaratib bergan. Xuddi mana shu kabi holatlarni yozuvchining asarlarida tabiatga bo‘lgan muhabbati va bog‘liqligi insonlarga oid bo‘lgan xususiyatlarni tabiat unsurlariga berib, uni shaxslantirib, jonlantirib ifodalaganligining o‘ziyoq o‘zgacha bir uslubni namoyon

etgan. Shundan bilinadiki, kulgan orol hikoyaning asosiy makoni bo‘libgina qolmay uning asosiy qahramoni hamdir. Aslida kulgan orol nomini olishining sababi orolga urulgan to‘lqinlarga hamohang tarzda daraxtlarning shamolda tebrangan holda chiqaradigan ovozi xuddiki, orol kulganidek tuyuladi.

Hikoyamizning keyingi asosiy qahramonlaridan biri esa telba Dovuddir. Uning kulgan orolga bo‘lgan cheksiz muhabbatga ega bo‘lgan insondir. Ushbu qahramonimizning orollarga bo‘lgan sevgisi va xususan, kulgan orolga tuygan ishqini hikoyaning aynan kirish qismida shunday tarzda ifodalangan:

*“Qaysidir toifa odamlari moddiy boylik ilinjida bo‘ladi, yana qaysidir toifadagilari esa kashfiyot va ijod ilinjida, yana ba’zilari esa musiqani sevarlar .... telba Dovud esa, orollarga oshiq edi. Dengizning bu telba oshig‘ining xayolida esa faqat orollar edi. Hattoki, biror yeri og‘rib qolsa “Orollar bilan uyg‘onaman deya kechalari mijja ham qoqmasdi”. (“Kimi insan para pul budalasi olur, kimisi keşif ve icat meraklısı, bazısı da müzik âşığı... Deli Davut ise, adalar karasevdalısıydı. Denizin bu deli divanesinin gözünde hep adalar tüter, adalar titrerdi. Tan yeri ağarırken “Adalarla birlikte uyanacağım.” diye çok geceler göz yummazdı.”) [2, b.35].*

Asarning yana bir qahramonlaridan biri esa, Izmirdagi mashhur shirkatlardan birining tadqiqotchisi hisoblanmish, Murod Kojadag‘ edi. Kojadag‘ hikoyaning salbiy qahramonidir. Shundan ko‘rinib turibdiki, hikoyaning boshida keltirilgan moddiy boylikka mukkasidan ketgan inson aynan Murod Kojadag‘ edi. U pul bilan har narsani hal qilsa bo‘ladi deb hisoblaydigan insonlar toifasidandur. Telba Dovud hech kimdan hech narsani kutmagan kamtarin inson bo‘lsa, Murod Kojadag‘ esa, har narsaga ega chiqa olaman, qo‘limdan har qanday ish keladi degan kibirli obrazlardan edi:

*“Kojadag‘ning o‘zini tutishi va ovozida faqatgina ega bo‘lgan mashinalari, mol-mulki haqidagi o‘y-fikrlar turar edi. Odamlar u bilan ko‘rishganida bir kishi bilan emas, xuddiki undan boshqa hech kimda mol-mulk yo‘qdek muomala qilar*

*edi*". (*"Kocadağ'ın tavrında ve sesinde, sahip olduğu otomobillerin, mal ve paraların toplamı sırtıyordu. İnsan onunla görüşürken bir insanla değil, otomobillerle, mal ve toprakla ve para kasasıyla konuşmakta olduğunu sanırdı"*) [2, b.39].

Asar qahramonlari orasidagi bog'liqlik Kojadag' va kulgan orol o'rtasida edi. Orol Kojadag'ning salbiy toifadagi inson ekanligini bilib, uni o'z makoniga kelishiga to'sqinlik qiladi. Kojadag'ning telba Dovud kabi inson emasligini ichidan his etib turardi. Mana shu yerda yozuvchi insondagi hissiy unsurlar kulgan orolda ham namoyon bo'lishini mahorat bilan tasvirlay olgan.

Halikarnas Baliqchisining ushbu hikoyasi tahlilida makon va insonlar kontekstida ikki toifaga ajratilganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, mahalliy aholi va dengizni sevib doimo u yerda bo'lishni istaydigan insonlar bu hikoyada ikki toifani tashkil qilishgan. Dengiz esa keng va katta bo'lishi bilan, go'zallikni, tabiiylikni, ma'sumiyatni, soflikni harakatlari bilan esa jo'shqinlikni, jonlilikni, hech kimga bo'yinsunmaydigan jihati bilan esa mustaqil ekanligini ifodalab kelmoqda. Aynan mana shu jihati bilan dengiz odamlari yaxshi inson obrazida, yerliklar esa yomon inson obrazida gavdalantirilgan. Dengiz odamlari doimo yaxshilik izlaydigan, mehribon, g'ayratli, shijoatli, nomusli bo'lsa aynan mana shunga konflikt holatda mahalliy insonlar xudbin, ochko'z va atrofdagi insonlarga zarar keltiradigan insonlar bo'lishgan.

Ushbu o'rinda konflikt tushunchasi haqida: Konflikt - ( lot. Conflictus - to'qnashuv) - personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o'zaro to'qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklardir. Konflikt termini an'anaviy tarzda ko'proq epik va dramatik asarlarga nisbatan qo'llaniladi. [4, b.408].

Yozuvchining kulgan orol hikoyasidagi tahlil qilingan "orol" ramzi ham yer bilan bog'liqligi bo'lmagan xarakterdir. Bundan tashqari kulgan orol, yerning bir bo'lagi bo'lib turmasdan, doimo harakatda bo'lgan bir xarakter hisoblanadi.

Adib asarlarida shunday konflikt bor bu ham bo'lsa dengiz insonlari dengizni sevib, uni himoya qiladigan insonlar bo'lsa yerlik aholi faqat o'z maqsadi yo'lida foydalanadigan toifadagilar bo'lishgan. [3, b.37 ].

Telba Dovud va Murod Kojadag'orolga borish uchun ikki xil turdagi transportdan foydalanishadi. Telba Dovud, orolning sokinligini ta'minlash maqsadida "qayiq" vositasidan foydalansa, Murod Kojadag' esa shovqin-suron solib orolni bezovta qiladigan "motorli qayiq"dan foydalanadi. Hikoyadagi mana shu ikki unsur ham ikki xil ramziylikni ifodalab kelgan. Diqqat- e'tiborni tortadigan hikoyadagi quyidagi jumlagi nazar tashlasak:

*"Mutaxassis motorli qayiqni ijaraga oldi. U bilan hamroh bo'lib boradigan Dovud'ning qayig'i esa, chetga surib qo'yildi. Uzoqdan o'zi tomon kelayotgan Kojadag'ni ko'rgan orol asta-sekin ko'tarilishni boshladi. .... Asli olganda u yerga orolni qo'rqitib yubormaslik uchun sekin-asta oyoquchida suzib borilardi". ("Eksper bir motor kiraladi. Kılavuzluk edecek olan Davut'un kayığı da yedekte çekilecekti. .... Uzaktan yanaşmakta olan Kocadağ'ı görünce ada yavaş yavaş büyümeğe koyuldu. .... Oraya bütün gönül gözler ve kulaklara toplanarak, patırtı yapıp adayı ürkütmemek için, usul usul ayakucuna basılarak gidilirdi") [2, b.39-40].*

Bu yerdagi ikki obrazni tanlagan ikki xil transport vositasi orolga bo'lgan munosabatini ochib bermoqda. Telba Dovud orolga sevgi to'la qalb bilan, sokin, ehtiyotkorona harakat bilan borib orolni qo'rqitib yubormay, uning tinchini buzmay desa, Kojadag' esa aynan shuning teskarisi, tanlasam eng qimmatini tanlayman, shovqin-suron ko'tarib, sokinlikni buzib borishni afzal ko'rmoqda. Kojadag' bu yerda tabiatga muhabbati yo'q faqat texnologiyaga ruju qo'ygan inson ekanligini yaqqol namoyon etilgan. Aynan man shu eyrdagi "ovoz" unsuri asosiy vosita bo'lgan, ya'ni Kojadag'ning o'ziga nisbatan bunday hurmatsizligi, Kulgan orolning g'azabini qo'zg'agan. Yana bir jihatga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, bu yozuvchi

moddiy boylik, ya'ni puldan nafratlanishini Kojadag' obraznini tasvirlash chog'ida namoyon etgan:

Natijalar va muhokama. *“Pulning erkinlikni mulk holiga keltirishiga qarshi edim...pulga shu sababli pulga ham dushmandek munosbatda bo‘laman.. Insonlar pul bilan hamma narsani sotib ololaman deb hisoblashadi. Aniqroq qilib aytgandan insonlarga shunday deb uqtirilgan. Pulga mukkasidan ketgan insonlardan nafratlanaman. Ishbilarmon Murod Kojadag' kulgan orolning maqtovini eshitgandan so‘ng baliqchi Dovudga “meni u yerga olib bor” deya pul taklif qiladi, aynan shu onda tabiatning butun g‘azabini asarga jo qilaman. Bu odamga bir qarang! Orolning do‘sti hisoblanmish Dovud orqali orolning butun go‘zalligini sotib olmoqchidek go‘yo!”* (*“Paranın, özgürlüğü mülk hâline getirmesine karşı çıktım. .... Paraya düşmanlığım bundandır, insanlar onunla her şeyi satın alabileceklerini sanıyorlar. Daha doğrusu böyle olduğu insanlara öğretiliyor.... Para babalarına insafım yoktur. İş adamı Murat Kocadağ, Gülen Ada'nın övgüsünü duyup da balıkçı Deli Davut'u “gezdir bana şu adayı” diye kiralayınca, doğanın bütün öfkesini seferber ederim. Adama bak! Parayı verince, Gülen Ada'nın baş dostu Deli Davut'un aracılığı ile tüm güzelliklerin ziyafetine konacak!”*) [5, b. 44 ].

Yer aholisining eng yomon tomonlari ham ana shunda, pulga haddan tashqari ruju' qo'yishida edi. Shu sababli ham ularda asosiy unsur dengizga bo'lgan muhabbati emas, balki, pulga bo'lgan muhabbatidir. Bu yerda ham ikki ziddiyat dengizga bo'lgan muhabbati bilan orolga yaqinlashish o'rniga, pul orqali orolga yaqinlashishni afzal ko'rish ochib berilmoqda. Bu yerda kulgan oroldagi ikki xil jonlantirishga guvoh bo'lishimiz mumkin. Biri o'ziga sevgi va do'stlik tuyg'ulari bilan yaqinlashgan Dovudni o'z do'sti singari qabul qilishi va faqatgina moddiy boylikni o'ylagan Kojadag'dan nafratlanishi yaqqol namoyon bo'lgan. Kulgan oroldagi aynan shu xarakter zid ekanligi bilan alohida e'tiborni tortadi.



Hikoyadan ko‘rinib turibdiki, adibda zid ma‘noli obzarlarni yaratish qobiliyati ustuvorligi va bu obzarlardan samarali foydalana olganligi ham yozuvchining mahoratli ekanligining yaqqol dalilidir. Hikoyadagi muhabbatga qarshi nafrat, moddiy boylikka qarshi ma‘naviy boylikning ustunligi ikkala obraz talqinida yaqqol ochib berilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kulgan orol hikoyasi qisqa hikoya bo‘lishiga qaramay undagi inson, makon, orol obrazlari va bu obrazlarning ham jismoniy hamda ruhiy holatlarini juda ta‘sirli qilib ko‘rsatib bera olgan hikoyadir. Hikoya tili esa aniq va ravon. Ushbu hikoya tahlilida kulgan orol bosh qahramon o‘laroq ifodalangan. Jamiyatdagi moddiy boylikni sevuvchi insonlardan nafratlangan kulgan orol bu kishilarni hatto o‘z hududida bo‘lishini istamaydi. Shundan ko‘rinib turibdiki, Kojadag‘ning moddiy boyligi bo‘lsa ham kulgan orolni sevgisini qozona olmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Oddiy inson bo‘lgan Dovudning unga bo‘lgan hurmati va muhabbatini esa haqiqiy insonlardek qadrlaganligiga guvoh bo‘lamiz.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, pul hamma narsani hal qiluvchi narsa emasligi, bu hayotda puldan ham muhimroq narsalar borligini ushbu hikoya vositasida anglash mumkin.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Erhat A. Mitoloji sözlüğü. - İstanbul: Remzi Kitabevi, 2007.
2. Balıkcısı H. Gülen ada. - İstanbul: Bilgi Yayınevi, 2018.–39-40 s.
3. İnsan hakları Eğitim Kültür Araştırmaları dergisi cilt: Sayı 2 Ekim 2023
4. Tanju S. Yahya Kemal ve Halikarnas Balıkcısı. - İstanbul: Arpaz Matbaası, 1983. 37 s.
5. Yazıcı N. Halikarnas Balıkcısı’nın eserlerinde tabiat. - Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 2002.

6. Қуронов Д., Мамажонова З., Шералиева М. - Тошкент:“Академнашр”,  
2013. -408.